

MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.

Safarova Vazira Ravshan qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kompusi Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: maqola mutaxassislik (kasbiy) fanlarini o'qitish metodlaridan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi, ta'lim natijalariga ta'siri va baholash masalalarini tizimli tarzda yoritadi. Ishning maqsadi - bu metod orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalari, o'qitish-tushunish darajasi va amaliy ko'nikmalarini qanday va qanchalik samarali rivojlantirish mumkinligini aniqlash hamda bu usullarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, mutaxassislik fanlari, faol o'qitish, ta'lim samaradorligi, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiya.

Kirish: Hozirgi kunda ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri - o'quv jarayonini faollashtirish, talabani bilim oluvchi emas, balki uni yaratuvchi sifatida shakllantirishdir. Bugunga kelib mutaxassislik fanlarini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar o'rnini talabani faol fikrlashga, tahlil qilishga va muammoni mustaqil hal qilishga yo'naltiruvchi metodlar ko'paymoqda. Shuning uchun o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Interaktiv metod - bu o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama muloqot ya'ne tajriba almashish, tahlil asosida bilim hosil qilish jarayonidir. Bunday darslarda talabalar fikr yuritadi, muhokama qiladi, amaliy vaziyatlarni hal qiladi, natijada ularning bilimlari chuqurlashadi va mustahkamlanadi. Shuning uchun interaktiv

metodlar ta'lim sifatini o'shish, o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va o'zlashtirish samaradorligini kuchaytirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Metodologik yondashuv: ushbu tadqiqotning metodologik asosini faol ta'lim nazariyasi, kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv va interaktiv pedagogika konsepsiyasi tashkil etadi. Asosiy maqsad - bu metod orqali talabalarning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarni qanday yaxshilash mumkinligini aniqlashdir. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olinadi:

1. Tajriba va taqqoslash yondashuvi.

Interaktiv metodlar qo'llanilgan guruh bilan an'anaviy usulda o'qitilgan guruh natijalari taqqoslanadi. Bu orqali har ikkala usul samaradorligini aniqlashtirish mumkin.

2. Amaliy kuzatuv va tahlil usuli.

O'quv jarayonida talabalar faolligi, darsdagi ishtiroki, mustaqil fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalari o'rganiladi.

3. Suhbat va so'rovnoma usuli.

Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rov o'tkazilib, interaktiv metodlarga munosabat, ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlashtiriladi.

Metodologik yondashuvning asosiy maqsadi - interaktiv o'qitish jarayonining haqiqiy ta'sirini amaliy dalillar orqali isbotlash bo'lib, bu yondashuv oddiy o'quvchi yoki o'qituvchi uchun ham aniq, kuzatishga asoslangan natijalar beradi.

Tadqiqotning asosiy g'oyasi: interaktiv ta'lim - bu o'qituvchi darsni faqat tushuntirib bermaydi, balki talaba bilan birgalikda muhokama qiladi, savollar beradi, o'yin, loyiha, guruhli ish yoki misol tahlili orqali o'rgatadi. Bunday darslarda talaba

faqat tinglovchi emas, balki ishtirokchi va fikrlovchi bo'лади. Shu sababli bu metod orqali ta'lim yanada samarali va sifatli holga keladi.

Ish olib borish bosqichlari:

tadqiqot uch bosqichda o'tkazildi:

- Birinchi bosqich - odatdagi darslar qanday o'tilayotgani va talabalar qanday o'zlashtirayotganini o'rganish uchun so'rovnomma va kuzatuv o'tkaziladi.
- Ikkinchi bosqich - tanlangan fanlarda interaktiv metodlar qo'llaniladi. Masalan, "case-study" (hayotiy misollarni tahlil qilish), "loyiha usuli" (biror mavzuda kichik loyiha tayyorlash), "muammoli savollar" va "guruhli ishlash" metodlari sonovdan o'tkaziladi.
- Uchunchi bosqich - bu usullarni qo'llagan guruh va an'anaviy darsdagi guruh natijalari solishtirildi. O'zlashtirish, faollik, mustaqil fikrlash va amaliy ishlash darajalari taqqoslab chiqildi.

Qo'llablangan usullar:

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Kuzatuv - dars jarayonida talabalar faoliyatini kuzatish.
- So'rovnomma - talabalar va o'qituvchilarning fikrini bilish.
- Eksperiment - yangi metodlarni amalda sinab ko'rish
- Tahlil - natijalarni solishtirib, umumiy xulosa chiqarish.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida interaktiv metodlardan foydalanilgan guruhda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi:

1. Bilimlarning mustahkamligi ortdi. Talabalar o'quv materiallarini o'z tajribasida qo'llab ko'rganlari sababli, ular bilimni uzoq vaqt eslab qolishdi. Bu esa Kolbning "tajriba asosida o'qitish" nazariyasini tasdiqlaydi.

2. Tahliliy va tanqidiy fikrlash shakllandi. Muammoli vaziyatlar va keyslar orqali talabalar mustaqil fikr bildirish, dalil keltirish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

3. Kasbiy kompetensiyalar rivojlandi. Mutaxassislik fanlari bo'yicha loyiha ishlari, amaliy mashg'ulotlar talabalarni o'z sohasida faol mutaxassis sifatida tayyorlashga yordam berdi.

4. Jamoaviy hamkorlik kuchaydi. Guruhli ishlar orqali talabalar o'zaro fikr almashish, ro'l taqsimlash, muloqot madaniyatini shakllantirishdi.

5. O'qituvchi roli o'zgardi. O'qituvchi endilikda dars jarayonini boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va hamkor sifatida ishtirok etmoqda. Bu esa "constructivist learning" yondashuviga mosdir.

6. Talabalar motivatsiyasi ortdi. Interaktiv darslar jarayonida o'quvchilar darsga qiziqib qatnashishdi, passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishdi.

7. Axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari rivojlandi. "Flipped classroom" va "online collaboration tools" orqali talabalar raqamli ta'lim muhiti bilan faol ishlashni o'rganishdi.

Umuman olganda, bu metoddan foydalanish o'quv jarayonini faollashtirib, bilim olishni oson, foydali va samarali jarayonga aylantirdi.

Natijalarni baholash mezonlari

Interaktiv metodlarning samaradorligi quyidagiquyidagi belgilar orqali baholanadi.

1. Talabalarning darsdagi faolligi;
2. Mustaqil fikrlay olish darajasi;
3. Amaliy ishlarni bajarish ko'nikmalari;
4. Jamoada ishlash va muloqot qobiliyati;
5. O'z faoliyatini tahlil qilib, xato va yutuqlarini tushuna olish qobiliyati.

Yangi jihatlari: bunda faqat dars natijalari bilan emas, balki talabaning fikrlash tarzi, hamkorlik madaniyati va ijodkorligi orqali ham baholanadi. Ya'ne bu yondashuv faqat "necha ball oldi" degan o'lchov bilan cheklanmaydi, balki "talaba dars jarayonida qanday o'zgardi? Degan savolga ham javob beradi.

Xulosa

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlardan foydalanish mutaxassislik fanlarini o'qitishda yuqori samaradorlik beradi.

- Darslar qiziqarli, jonli va ijodiy muhitda o'tadi.
- Interaktiv metodlar mutaxassislik fanlarini o'qitishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi.
- Bu metodlar ta'lim jarayonida "o'quvchi markazda" tamoyilini to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

- Talabalarning faolligi, fikrlash doirasi va amaliy ko'nikmalari ortadi
- O'qituvchi esa dars jarayonini boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, hamkor sifatida faol ishtirok etadi.
- Natijada o'quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki shaxsni rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv yondashuvlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida o'z o'rnini topmoqda.
- Zamonaviy raqamli texnologiya bilan birlashtirilgan metodlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

References

1. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. - Toshkent, 2020.
 2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
 3. Jhon Dewey, David Kolb, Vygotsky, Bonwell & Eison (Active Learning, 1991)
 4. Xodjjeva M., Abdurahmonova d. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. - Toshkent: TDPU, 2019.
 5. To'rayev O. Zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlar. - Toshkent, 2022.
 6. Kolb, D. A (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Prentice Hall.
 7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. - New York: Macmillan
 8. Prince, M. (2004). "Does Active Learning Work? A Review of the Research". Journal of Engineering Education, 93(3), 223-231.
- Anderson, L. & Krathwohl, D. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. - New York: Longman.